O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI TERMIZ TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

Termiz tumani, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 191200, tel.: (+99876) 36-32-200, faks.: (+99876) 36-32-200, termiz.t@exat.uz

2021 - yil 29 - sentabr 158-8-117-Q/21 Termiz tuman hokimligi

Termiz tumanida 2021 yilda yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat’iy belgilangan miqdordagi soliq stavkalarini belgilash to‘g‘risida

Soliq kodeksining 383-moddasi, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Termiz tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. “2021 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi Qonun bilan Soliq kodeksining 383-moddasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgani ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Termiz tumanidagi hududlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasiga, tadbirkorlik faoliyati amalga oshiriladigan joylarning xususiyatlariga, shuningdek faoliyat amalga oshiriladigan turlarining mavsumiyligiga qarab oziq-ovqat tovarlari va nooziq-ovqat tovarlari hamda mayishiy xizmat va milliy shirinliklar bilan chakana savdo qiluvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat’iy belgilangan miqdordagi soliq summalariga nisbatan 2021 yil uchun kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar birinchi va ikkinchi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Soliq kodeksining 383-moddasida belgilangan oziq-ovqat tovarlari va nooziq-ovqat tovarlari bilan chakana savdo qilish faoliyatidan tashqari boshqa faoliyat turlari uchun belgilangan qat’iy belgilangan miqdordagi soliq summalari o‘zgarishsiz qoldirilsin.

4. Termiz tuman davlat soliq inspektsiyasi (E.Juraqulov) tuman hududidagi oziq-ovqat tovarlari va nooziq-ovqat tovarlari bilan chakana savdo qilish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlardan qat’iy belgilangan miqdordagi soliqni undirishda mazkur qaror ilovasida belgilangan soliq stavkalariga rioya qilsin.

5. Termiz tuman davlat soliq inspektsiyasi (E.Juraqulov) ushbu qaror ilovasida belgilangan soliq stavkalariga oid ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini ta’minlasin hamda tadbirkorlar va aholi o‘rtasida tushuntirish ishlarini olib borsin.

6. Mazkur qaror tuman gazetasida e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

8. Mazkur qarorning ijrosini ta’minlash tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (Sh.Qalandarov), nazorat qilish Xalq deputatlari Termiz tuman Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi raisi (L.Karimov) zimmalariga yuklansin.

Termiz tuman hokimi **Urinov S. B.**

Термиз туман ҳокимининг
2021 йил 29 сентябрдаги
158-8-117-Q/21-сон қарорига
1-илова

Термиз туманида озик-овкат товарлари ва ноозик-овкат товарлари билан чакана савдо килувчи якка тартибдаги тадбиркорлар учун катьий белгиланган микдордаги солик суммаларига нисбатан 2021 йил учун камайтирувчи ва оширувчи коэффициентлар

сумда

Т/р	Худудноми	МФЙ номи	Катъий белгиланган микдордаги солик суммаси (минг сумда)	Коэффицент
1	Термиз тумани	Учқизил МФЙ	200,0	1
2	Термиз тумани	Янгихаёт МФЙ	200,0	1
3	Термиз тумани	Орол МФЙ	200,0	1
4	Термиз тумани	Халқаобод МФЙ	200,0	1
5	Термиз тумани	Янгиобод МФЙ	200,0	1
6	Термиз тумани	Нурафшон МФЙ	200,0	1
7	Термиз тумани	Бунёдкор МФЙ	200,0	1
8	Термиз тумани	Ат.Термизий МФЙ	200,0	1
9	Термиз тумани	Қўнғирот МФЙ	200,0	1
10	Термиз тумани	Қахрамон МФЙ	200,0	1
11	Термиз тумани	Мустақиллик МФЙ	200,0	1
12	Термиз тумани	Намуна МФЙ	200,0	1
13	Термиз тумани	М.Эштемиров МФЙ	200,0	1
14	Термиз тумани	Нурли Диёр МФЙ	200,0	1
15	Термиз тумани	Янгиер МФЙ	200,0	1
16	Термиз тумани	Термиз МФЙ	200,0	1
17	Термиз тумани	Айритом МФЙ	200,0	1
18	Термиз тумани	Қуёшли юрт МФЙ	200,0	1
19	Термиз тумани	Ш.Рашидов МФЙ	200,0	1
20	Термиз тумани	Истиқлол МФЙ	200,0	1
21	Термиз тумани	Дўстлик МФЙ	200,0	1
22	Термиз тумани	А.Темур МФЙ	200,0	1
23	Термиз тумани	Қорахон МФЙ	200,0	1
24	Термиз тумани	Солиобод МФЙ	200,0	1
25	Термиз тумани	Сабзипоя МФЙ	200,0	1
26	Термиз тумани	Гулистон МФЙ	200,0	1
27	Термиз тумани	Наврўз МФЙ	200,0	1

28	Термиз тумани	Жўйжангал МФЙ	200,0	1
29	Термиз тумани	Кунчиқар МФЙ	200,0	1